



**Mehnat huquqlari buzilgan  
shaxs adolatga shubha bilan  
qaraydi**

7-betda o'qing ↗



**Qahrga aylangan mehr  
yoxud biz kimlarning avlodи  
edik?**

8-betda o'qing ↗

# INSON va qonun

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://telegram.me/hudud24official/) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

2023-YIL  
23-MAY  
SESHANBA

**No 20 (1380)**

[www.hudud24.uz](http://www.hudud24.uz)

@adolat\_nashrlari




**"ADOLAT"** milliy  
huquqiy axborot  
markazi nashrlariga  
obuna bo'ling!

**"Adolat  
nashrlari"**  
telegram  
kanalida  
kuzating!



## 17-18-MAY KUNLARI “TASHKENT LAW SPRING” III XALQARO YURIDIK FORUMI BO'LIB O'TDI



Forum yalpi majlisida O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri Akbar Toshqulov, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovska, Singapur Ichki ishlar va huquq vaziri K. Shanmugam, Ozarbayjon Respublikasi Adliya vaziri Fikret Mamedov, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Nig'matilla Yo'ldoshev, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomov, Qirg'iziston Respublikasi Adliya vaziri Ayaz Bayetov, Huquqni rivojlantirish xalqaro tashkilotining bosh direktori Yan Bigl, Sloveniyaning sobiq bosh vaziri Miroslav Serar va Germaniya sobiq adliya vaziri Gerta Doybler – Gmelinlar o'z ma'ruzalarini bilan ishtiroy etdi.



## 2 FORUM

# TASHKENT LAW SPRING

17-18-MAY KUNLARI

## “TASHKENT LAW SPRING”

III XALQARO YURIDIK FORUMI BO'LIB O'TDI

Xalqaro yuridik forumning ochilish marosimi 17-may kuni Toshkent shahri bo'lib o'tdi. Ushbu forum Adliya vazirligi tomonidan BMT, "Regional Dialogue" ("Mintaqaviy muloqot") xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti va boshqa hamkorlar ishtirokida tashkil etildi.

Forumning asosiy maqsadi xalqaro, xorijiy va mahalliy ekspertlar tomonidan fundamental huquqlar prizmasi orqali zamonaviy huquqiy tendensiyalarini muhokama qilish uchun ochiq platforma yaratishdan iborat.

Huquq sohasidagi zamonaviy ilm-fan yutuqlarini O'zbekistonda va jahonda ommalashtirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan "Fundamental huquqlar barhayot qadriyatlar sifatida" mavzusidagi xalqaro forum yalpi majlisiga White&Case hamkorli Kerolin LEMM moderatorlik qildi.

**Akbar TOSHQULOV,**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri:

– Biz uchun fundamental huquqlar himoyasi abadiy qadriyatlar kabi muhimdir. Barchaning qonun oldida tenglig'i va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqi amalda ta'minlanishi kerak.

Davlatlarning siyosi va huquqiy tizimlari turlicha bo'lganligi sababli fundamental huquqlarni talqin qilish yoki ularga amal qilishda yaxshi yoki yomon tomonidan farqlar bo'lishi tabii. Lekin har qanday jamiyatda ham progressiv fikrlovchi, fundamental huquqlarning fidoyi himoyachilar ham bor va ular vaziyatni yaxshi tomoniga burishga doim harakat qilishadi. Men bunday rolda yuristlar ko'proq bo'lishini istardim. Chunki, biz yuristlar muam-

molarga kundalik ish jarayonida doim duch kelamiz va ularning yechimini ham yaxshi bilamiz.


Bugun butun progressiv jamiyatlar insонning fundamental huquqlarni har qachongidan yuqori darajaga ko'tarishga intilmoqda. Bu fundamental huquqlar har bir shaxsning qadr-qimmati va tengligiga asoslanadi. Ulardan inson huquqlarining asosiy qadriyatları – shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar kelib chiqadi.

Ushbu fundamental huquqlar inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan bo'lib, hamma joyda bir xil himoya qilinishi shart!



**Nig'matilla  
YO'L DOSHEV,**  
O'zbekiston  
Respublikasi Bosh  
prokurori:

– III xalqaro yuridik forum xalqaro hamkorlar bilan fikrashish uchun yangi imkoniyatlar eshidigini ochdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yangilan-gan Konstitutsiyamiz inson huquq va erkinliklarini mustahkam kafolatlashga xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Bosh qonunimiz prokura organlarining fundamental huquqlarini ta'minlashdagi rolini ham oshiradi.



**Baxtiyor ISLOMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy  
sudi raisi:

– Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohotlarning bosh mezonini hisoblanadi. Yaqinda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat va jamiyat rivojanishining eng muhim yo'nalişlarini belgilab berdi. Buning zamirida "Inson qadrini ulug'lash" degan egzu g'oya mujassam.


Shuningdek, advokatura maqomi Konstitutsiya darajasiga ko'tarilgani ham inson huquqlari himoyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sudlarning faqat davlat budgetidan moliyalashtirilishi belgilab qo'yilishi esa sudlar mustaqilligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

"Fundamental huquqlar barhayot qadriyatlar sifatida"; "Nizolarni muqobil hal etish: mediasiyadan arbitrajgacha"; "Sifatli norma ijodkorligi orqali qonun ustuvorligiga qadar"; "Yuridik sohada raqamli texnologiyalar"; "Davlat xizmatlari: muvaffaqiyatlar, vazifalar va istiqbollar"; "Korrupsiyaga qarshi siyosat"; "Intellektual mulk ekozitimi – O'zbekistonning innovatsion va sanoat muhitini shakkantirish vositasи sifatida"; "Zamonaviy huquq uchun yuridik kadrlar"; "Sud ekspertizasi rivojanishining zamonaviy tendensiyalari"; "Fundamental huquqlarni mustahkamlash uchun konstitutsiyaviy islohot"; "Odil sudlovga erishish"; "Xalqaro NNT faoliyati uchun yangi imkoniyatlar" mavzularidagi sessiyalarda ta'kidlanganidek, zamonaviy dunyoda insonning fundamental huquqlari asosiy planga chiqdi. Inson huquqlarini ta'minlasdan turib demokratik va rivojlangan davlat qurib bo'lmasi o'ddiy haqiqatga aylandi. Huquqiy madaniyatni oshirmay turib fundamental huquqlarni hayotga singdirish va ta'minlash mumkin emasligi ayon bo'ldi. Huquqiy islohotlarning asl mohiyatini ana shu muhim mezon belgilashi zarurligi anjumanning ibtidosidan to intihosigacha o'z aksini topdi.



# TASHKENT LAW SPRING



**Fikret MAMEDOV,**  
Ozbarbayjon Respublikasi adliya  
vaziri:

## INSON HUQUQLARI— BOSH MEZON

— HOZIRGI kunda Ozbarbayjonda yangi ma'muriy adliya faoliyat yuritmoqda. Inson huquqlarini qayta tikkashdagi asosiy vazifalardan biri mana shu ma'muriy adliyaga qaratilgan. Oxirgi yillarda konseptual bo'lgan sud tizimi shakllantirilmoxda.

Mamlakatimizda "Elektron sud" tizimi joriy etilgan. U sud qarorlarining ijrosigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga oladi. Eng muhim, Ozbarbayjonda sud tizimiga aralashmaslikni ta'minlab berish, qonun doirasi-da sudyalarning oylik maoshlari tushib ketishi taqjilangan. Bundan tash-qari, 40 dan ortiq yangi sudlar shakllantirilgan. Sud tizimiga yangi, o'ziga xos amaliyotlarni joriy etish bilan adolat samaradorligi bo'yicha Yevropadan ham yuqori darajaga erishdik, deb ayta olaman. Suddagi ishlarning 4/3 qismi qanoatlanrilmoqda.



**Nika SAIDI,**  
BMT Taraqqiyot dasturining  
O'zbekistondagi doimiy vakili  
o'rinosi:



**Elizabet ANDERSEN,**  
"Jahon adolati" loyihasi  
ijrochi direktori:

## QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH MUHIM

— Global hamjamiyat fundamental inson huquqlari bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Biz dunyoning 140 ta mamlakatida qonun ustuvorligi ta'minlanganligini o'rganish yuzasidan monitoring o'tkazamiz. Mazkur loyiha bo'yicha biz qonun ustuvorligini nazarda tutamiz. Buning uchun fundamental inson huquqlariga amal qilish talab etiladi. Bular so'z erkintigi, din erkintigi hamda jinoyat qonunchiligining shaffofligini va adolatiligini nazarda tutadi.



**K. SHANMUGAM,**  
Singapur ichki ishlar va huquq vaziri:

## Inson qadrini ko'tarish uchun nima kerak?

— SINGAPUR tajribasi haqida gapiradigan bo'lsam, bizda inson manbasi asosiy o'rinda turadi. Davlatimizda fuqarolarning fundamental huquqlarini ta'minlashga asosiy vazifa deb qaraladi. Fundamental huquqlar, avvalo, insonlarning xohish-istiklalidan kelib chiqadi. Ya'ni, ta'ilim olish, dam olish kabi huquqlardan iborat.

Singapur ta'ilim sohasida Yaponiyadan keyin-gi o'rinda turadi. Mamlakatimiz bolalar ta'ilim olish uchun eng qulay davlatlardan bividir.

Inson resursi birlinchi o'ringa chiqishi uchun:

- kuchli markazlashgan hukumat kerak (u ta'ilim, sog'iqliqi saqlash — inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha boshqa barcha majburiyatlarni to'liq bajarishi shart);

- kompetentligi bo'lgan — kuchli bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan davlat xizmatchilarini ishga olish kerak;

- mamlakatda yashaydigan millatlar birlashuv kerak.

Singapur qonun ustuvorligi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlarni egallaydi. Juhon banki Singapurni bolalar eng yaxshi shiroitlarda yashashi mumkin bo'lgan davlat sifatida tan olgan. 77 foiz aholi davlat tomonidan uy-joy bilan ta'minlangan, 95 foiz Singapur aholisi ko'chalarida harakatlanishda o'zini xavfsiz his qiladi: bu ko'satichilar ayollar, yosh va keksalar fikrlari asosida shakllantiriladi.



**Per Bodo-LIVINEK,**  
Parij X-Nanter  
universitetining omnaviy  
huquq professori, Xalqaro  
huquq uyushmasi  
tadqiqot direktori:

## MILLIY QONUNCHILIK IKKITA FAKTOR ASOSIDA QURILADI

— XALQARO va milliy qonunchilik o'rtaсидаги о'заро murakkab aloqalar haqidagi fikrlarimni bildirmoqchiman. BMTning Xalqaro sudi bu masala bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Ulardan biri bu ishonchszilik. Ya'ni, xalqaro huquq nuqtai nazaridan va milliy huquq nuqtai nazaridan ishonchszilik masalasi. BMT Xalqaro sudining qarorlarida ta'kidlangani, milliy qonunchilik ikkita faktor asosida quriladi. Birinchisi, an'anaviy tarzda yaratilgan huquq normalari. Ikkinchisi, albatta, xalqaro huquq normalari asosida yaratilgan milliy huquq normalari bo'ladi.

Dualistik naziyyaga ko'ra, milliy va xalqaro huquqni bir-biridan qat'iy chegaralar ajratib turadi. Masalan, xalqaro huquq normasi milliy qonunchilikka transformatsiya qilingandan so'ngina milliy qonunchilikning bir qismiga aylanadi.

## O'ZBEKİSTONDA IBRAT OLSA ARZİYDİĞAN TİZİM YARATILGAN

— OTGAN yillar davomida O'zbekistonda davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini o'zgartirish bo'yicha samarali yutuqlarga erishildi. 2017-yil dekabr oyida tizimni tubdan isloh qilish bo'yicha dadil qadam tashlandi. Davlat xizmatlari markazlari "Xalq davlatga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" shiori bilan tashkil etildi. Asosiy maqsad byurokratiya va korrupsiyaning oldini olish, odamlarning hukumatga ishonchini mustahkamlash edi. Mamlakat bo'ylab 180 dan ortiq yangi davlat xizmatlari markazlari ochildi, bu esa ortiqcha qo'qozbozlik va byurokratiyaga barham berdi.

Mamlakatda raqamli iqtisodiyotga o'tishning jadallahuvni hamda elektron boshqaruvi va raqamlashirishning kengayishi munosabati bilan davlat xizmatlari markazlari orqali ko'satiladigan xizmatlar turlari ko'paydi. Markazlar orqali xizmatlari qabil qilish 2 barobardon ortdi, my.gov.uz orqali ko'satilayotgan xizmatlar qariyb o'barobarga oshdi. Fuqarolar my.gov.uz sayti orqali 420 ta onlayn xizmatlardan foydalanishi mumkin.



# TASHKENT LAW SPRING



**Yan BIGL,**  
Huquqni rivojlantirish  
xalqaro tashkilotining bosh  
direktori:

## GENDER TENGLIK BO'YICHA

### O'ZBEKİSTON PESHQADAM

– Tashkilotimiz O'zbekiston hukumati bilan, shuningdek, Yevropa Tiklanish taraqqiyot banki bilan nizolarni hal qilish mexanizmlarini yaratishda bevosita hamkorlik faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston hukumatidan hozirgi kunda gender tenglikni ta'minlash va jinsga asoslangan kamsitishni bartaraf etish va yo'q qilish bo'yicha ijobji ishlari qilinmoqda. Keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari qayta ko'rib chiqilib, yangilarini yaratish bo'yicha ham bir qator ishlari qilinayotganidan xabardormiz. Bu yo'nalishda bevosita chet el

tajribasi o'rganilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Har bir qonun ishlab chiqilayotgan paytda insonlarning fundamental huquqlaridan kelib chiqishi kerak. Bu borada O'zbekiston ancha peshqadamlik qilmoqda. O'zbekiston hukumatining fundamental huquqlarini ta'minlashdagi sa'y-harakatlari tahsinga loyiq. O'rta va kichik biznes vakillarining o'z nizolarini hal etish bo'yicha ham O'zbekiston o'ziga xos tajribaga ega.

Norma ijodkorligidagi shaffoflik qonunlarga ishonchni oshiradi, albatta. Qonun ustuvorligi asosan qonunosti hujjatlardan boshlandi. Sifatlari norma ijodkorligi uchun

fundamental inson huquqlari ta'minlanishi kerak. O'zbekiston huquqshunoslari bu yo'nalishda jahon tajribasini o'rganmoqda. Sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalarning rivojlanganligi sohaga ijobjiy ta'sir ko'satmoqda.

Bugun biz O'zbekistonda yuksak qonun ijodkorligiga guvoh bo'lib turibmiz. Bu o'zgarishlardan xur-sandmiz. O'zbekiston qonunchiligini rivojlantirish uchun katta investitsiya kiritdi. Masalan, yer qonunchiligi bo'yicha, ayollarga va botalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi qabul qilingan qonunlar shular jumlasidandir.

**Veronika KIM,**  
advokat, "NLC PARTNERS"  
advokatlik firmasining  
boshqaruvchi hamkor:



## O'zbekistondan o'rgansak arziydi

– Qozog'istonda ham davlat va xususiy eksperti za tashkilotlari mavjud. Ikkalasi uchun ham talablar bir xil. Ammo ularning xulosalarini yashirinchaligi langan amaliyot tufayli har xil yuridik kuchga ega. Masalan, prokuratura va sud nomidan tadqiqotlar asosan davlat ekspertlari tomonidan olib borildi.

Sud ekspertizasini standartlashtirish va sifat menjimenti tizimini ta'minlashning ilg'or mexanizmlarini joriy qilmasdan zamonaviy sud ishlari yuritish mumkin emas. Qozog'istonda sud ekspertizalarini ko'rib chiqish instituti rivojanmagan. Ammo ushbu institut ekspert xulosalarini ko'rib chiqish, tadqiqotlarning sifatini oshirish, qo'shimcha va takroriy tekshiruvlar sonini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sohani qobiliyatsiz mutaxassislardan tozalashda filtr vazifasini o'taydi.

O'zbekistonda bu borada o'rgansak arziyidigan yutuqlarga guvoh bo'dik va tizimdag'i samarali faoliyat bizni quvontirdi.

**Matilda  
DIMOVSKA,**  
BMT Taraqqiyot  
dasturining  
O'zbekistondagi  
doimiy vakili:



## Taraqqiyotga erishish inson huquqlarini ta'minlashga bog'liq

– Men mazkur yuridik forumda uchinchi marotaba ishtirok etayotganidan juda mammunman. Ushbu forum Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligi nishonlanayotgan joriy yilda bo'lib o'tayotganida ham teran mazmun-mohiyat mujassam.

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturi samarali hamkorlikni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, davlat xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishidagi ishlarmiz e'tirofa molik.

Taraqqiyotga erishishning to'qson besh foizi inson huquqlarini ta'minlashga bog'liq. Shu jihatdan olganda, dunyoda ko'plab o'zgarishlar bo'ldi va bo'lmoqda. Masalan, pandemiyanı oladigan bo'lsak, pandemiyaliga tufayli ko'plab mamlakatlar qonunlarini o'zgartirishga majbur bo'ldi.

Bugungi kunda dunyoda uch milliard yetti yuz million odamning internetga kirish imkonii yo'q. Dunyo aholisining qolgan qismida barcha zamonaviy texnologiyalar mavjud, ammo ular xursand emas. Chunki, ularning xavfsizligi kafolatlanmagan.



# TASHKENT LAW SPRING



**Naito SHINTARO,**  
Yaponiya adliya vazirligi  
huzuridagi ilmiy-tadqiqot  
va malaka oshirish  
instituti Xalqaro hamkorlik  
departamenti direktori:

YAPONIYADA O'LIM JAZOSI BO'LMASA HAM

## KORRUPSIYA KAM

— Yaponiya sud-huquq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida katta tajribaga ega. Bizda 50 AQSh dollarini dan qimmatroq sovg'a olish mumkin emas. Korrupsiya uchun eng og'ir jazo – 10 yildan 15 yilgacha qamoq jazosi. Bu jinoyat uchun o'lism jazosi ham, umrbod jazo ham berilmaydi. Yaponiya davlat xizmatchilarining halolligi dunyo davlatlari orasida yuqori darajada. Ular orasida korrupsiya holati juda past.

Davlat xizmatchilar uchun qattiq qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, davlat xizmatchilariga unga taalluqli bo'lgan odamlardan 5 ming iyena (taxminan 40-50 AQSh dollar) atrofiddagi summadan ortiq summada hadya olish mumkin emas. Bundan ortiq holatlarda hadya olinganda

albatta hisobot berilib, keyin istisno holatlardagina sovg'an qabul qilishi mumkin.

Amerika tajribasining yaponcha talqini – Yaponiyaga yaqinda Amerika tajribasi asosida aholi orasidan sudda ishtirok etadigan 10-12 kishilik "juryi" tizimi joriy etildi. Bu tizimni qo'llashda turli taxminlar bo'ldi, ishlab ketadimi, degan xavotilar ham. Lekin Yaponiyada uyg'unlik tizimi mavjud bo'lganligi uchun bu qiyin bo'lmadi. Albatta, bunda Amerika tajribasi aynan olinmagan, ya'n o'zimizga moslashtirilgan. Bu shunday jarayonki, aholi ichidan odamlar tanlab olinadi, ular jinoyat sudlarida sudlanuvchi aybdormi yoki aybdor emasligi bo'yicha ovoz berishadi. Bunday sudlar zaruratga ko'ra

chaqiriladi. Yaponiyada sudyalar, prokurorlar, advokatlar hammasi bitta joyda tayyorlanadi, bir xil imtihon topshirishadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekistonda sudyalar Olyi maktabi bor, prokurorlar Huquqni muhofaza qilish akademiyasida tayyorlanadi. Yaponiyada esa barcha yuridik soha vakillari bitta tizimda tayyorlanadi va bu o'zaro turli yo'nalishlardagi yuristlar orasida uyg'unlikni ta'minlaydi. Albatta, O'zbekistonda shakllangan an'andalar bor. Va buni aynan implementatsiya qilsin demayman. Ammo ijobjiy tomonlarni o'rganish va uni tatbiq etishlarida O'zbekiston bilan hamkorlikka hamisha tayyormiz. Bugungi forum orqali biz shu boroda ham tajriba almashyapmiz.

**Stelios**

**ANDREADAKIS,**  
London Brunel  
universiteti aspirantura  
direktori:



## Sun'iy intellekt ta'lif tizimi uchun tahdidmi?

— SUN'iy intellektga, xususan, GPT chatga avval boshida hamma narsaga yechim beradijan, mo'jizaviy xadoriga qaragandan qaralди. Intuziazm yuqori edi.

Xo'sh, GPT chatdan yuridik ta'lifda qanday foydalanish mumkin? Aytish mumkinki, sun'iy intellekt, ta'lif tizimi uchun aslida tahdid emas, imkoniyat. Dunyo uzluk-siz rivojlanishda, raqamli ta'lif ham shu sur'atda rivojlanib borishi, bu jarayonda eng yaxshi variantlarni tanlay bilish kerak.

Aytish mumkinki, talabalar topshirgan imtihon matnlarini mashina yoki inson yozganini tushunishga qynalgan paytlar bo'ldi. Bir tajriba jarayonida respondentlariga ikki matn berildi: birini professor, boshqasini GPT chat tuzgan. Nima deb o'ylaysiz, ularni hamma ham farqlay olishdimi? Talabaning ta'lif jarayonida sun'iy aqldan foydalaniши bu hali muammo emas. Uning kelajakdagи karyerasida sun'iy intellektga suyanib qolishi muammo.

**Inese VOIKA,**

Siyosiy ekspert,  
korrupsiyaga qarshi  
kurash va samarali  
boshqaruв sohasida  
tajribali nodavlat  
tashkiloti faoli



## Latviya korrupsiyadan qanday qutulgan?

— LATVIYADA 25 yildan beri davlat xizmatchilarining daromadlari deklaratsiya qilinadi. Davlat xizmatchilarining daromadlari deklaratsiya qilinishi lozim. Va barcha rivojlangan mamlakatlarda bunday amaliyat bor. Korrupsiyani yo'qotish uchun O'zbekiston eng muhim qonunni, ya'n "Davlat mansabdorlarining deklaratsiya va manfaatlar to'qnashuvi" haqidagi qonunni, albatta, qabul qilishi kerak. Latviya korrupsiya bilan kurashishni dastlab shu qonunni qabul qilishdan boshlagan. Bu juda muhim, korrupsiya bilan kurashishni hukumat o'zidan boshlaganiga xalq ishonishi kerak. Konstitutsiya va qonunlar qanchalik mukammal bo'lmisin, agar u ishlamasda hech narsa o'zgarmaydi. Konstitutsiya va qonunlarning ishlashini esa faqat davlat emas, jamoatchilik va ayniqsa jurnalistlar hazorat qilishi va talab qilishi kerak, shundagina nimadir o'zgaradi.



## 6 HOLAT



**- BIRINCHI turmush o'rto-g'im bilan oиласиз тез бузилиди. Бироq qонунинг никоҳимиз ҳалиям бекор қилинмаган. Ҳозирда бoshqa bir shaxs bilan shar'iy nikohdaman. Yaqinda farzandli bo'ldik. Chaqalogs'ining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi qay tartibda rasmiy- lashtiriladi?**

M. XALILOVA,  
Gijduvon shahri

## Otalik qanday belgilanadi?



- Haqiqatan ham, ushbu jarayonda qanday yo'l tutish kerak degan savol tug'iladi. Eng avvalo nikohni har qanday holatda ham faqat qonuniy tartibda belgilash bunday hollarda ortiqcha ovoragarchilikdan xalos etadigan yagona yo'ldir. Agar bolaning onasi boshqa shaxs bilan qonuniy nikohna turgan bo'sa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizaga nikohna turgan arning u bilan qonuniy nikohna bo'lgan onadan tug'ilgan bolaga nisbatan otalikni belgilash yoki bolaning tug'ilishini yolg'iz ona arizasi asosida qayd etilishiga notarial tasdiqlangan roziligi ilova qilinishi yoki u FHDY organiga kelib bunga yozma ravishda o'z roziliginibildirishi lozim. Bunday rozilik FHDY organi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Masalan, fuqaro S. Hoshimovning rozilik arizasida quyidagi ko'satilgan bo'lishi lozim: "Men bilan qonuniy nikohna turgan fuqaro (M. Xalilova)-dan 2023-yil 15-mayda tug'ilgan o'g'il farzandning biologik otasi emasman, bolaga nisbatan kelgusida ota-onalik huquqini da'vo qilmayman, bolaning tug'ilishini yolg'iz ona arizasi asosida qayd etilishiga yoki bolaga nisbatan uning haqiqiy otasi tomonidan otalik belgilanishiga qarshi emasman".

Savolga G'ijduvon tuman FHDY bo'limi 1-toifali inspektorlari Zulfizar SAYFIYEVA javob berdi.

Ta'kidlash joiz, pandemiyaning dastlabki kunlaridan oq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami ni qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezidentimiz rahbarligida 2020-yilning 20-aprelida bo'lib o'tgan video-selektor yig'ilishida xalqimizning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini, xayr-saxovat, mehr-oqibat kabi yuksak fazilatlarini inobatga oлган holida, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatini yo'nga qo'yish tashabbusi ilgari surligan edi. Va hukumat far-moyishi bilan Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondining viloyat-lardagi bo'limgilari, tuman va shahar bo'linmalarini huzurida "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari tashkil qilinib, uning Nizomi tasdiqlandi.

Mazkur jamg'arma faoliyatiga uch yildan oshdi. O'tgan vaqt mobaynida jamg'arma hisobidan keng miyoqdagi xayriya ishlari tashkil qilindi. Birgina 2022-yilda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari qarorlari asosida hududiy "Saxovat va ko'mak" jamg'armalari hisobidan 29 ming 482 nafar ehtiyojmand fuqaroga 29,8 milliard so'mlik ijtimoiy yordam ko'rsatilib, ushbu mablag'lari pul shakliida 8 ming 481 nafar fuqaroga moddiy yordam, 15 ming 789 nafar fuqaroga (oilaga) oziq-ovqat mahsulotlari va 666 nafar fuqaroga dari vositalari xaridi uchun, kasallikka chalingan mingdan ortiq ehtiyojmand fuqarolarning davolaniши va jarrohlik amaliyoti uchun va boshqa maqsadlar uchun yo'naltirildi. Joriy yilning 1-may holatiga esa 5 ming 818 nafar ehtiyojmand fuqaroga 10,2 milliard so'mlik moddiy yordam ko'rsatildi.

Jamg'arma Nizoming 6-bandida, jamg'arma mablag'lari koronavirus pandemiyasi va karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga, ko'p farzandli oilalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga va yolg'iz qaridalarga, o'z daromadini yo'qotgan vaqtinchida ishsiz bo'lgan jismoniy shaxslarga pul mablag'lari, kundalik iste'mol tovarlari, dari vositalari va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash uchun ishlatalidi, deya belgilangan.

Biz uchun amaliyotda ko'p bahs-munozaraga, tortishuv va turli talqinlarga sabab bo'layotgan jamg'arma Nizomingi "... va boshqa mahsulotlar" normasi muammo bo'layapti. Boshqa mahsulot deganda, xarid qilish qonun bilan cheklanmagan har qanday mahsulotni (tovarni) tushunishimiz mumkin. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari qarorlari bilan ko'mir, qurilish materiallari xarid qilinganda, ehtiyojmand nuroniy otaxonlarga gazetaga obuna qilib berilganda nazorat idoralarini tomonidan "Mahalla" fondiga e'tirozlar bildirildi, ishlar sudgacha bordi.

Jamg'arma mablag'lari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari qarorlari asosida tasarruf etilishi Nizoming 7-bandida belgilangan. Sir emas, Kengash sessiyasi aksariyat hollarda oyda bir



**ASRIMIZNING eng fojiali voqealaridan biri shubhasiz koronavirus pandemiyasi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yaqinda uning bekor qilingani haqida xushxabar tarqaldi.**

## "SAXOVAT VA KO'MAK" jamg'armasiga yangi asos kerak!

marotaba bo'lib o'tadi, unda ham qonunga asosan yetti kun oldin e'lon qilinishi kerak. Biroq Kengash sessiyalari oralig'ida jamg'arma mablag'lari tasarruf etish tartibi belgilanmagani bois, amaliyotda, shoshilinch ravishda jarrohlik yoki davolaniш ishlari uchun ehtiyojmand fuqaroga berilishi kerak bo'lgan yordam tezkor ravishda yechilmagani sabab fuqarolarning haqli e'tiroziga va shikoyatiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda dolzarb muammolardan yana biri, bu jamg'arma mablag'lari tasarruf etishda davlat xaridlarini qonunchiligi talablarini qo'llash yoki qo'llamaslik masalasiga aniqlik kiritish bo'lib turibdi. Boisi, jamg'armaga budgetdan salmoqli mablag' ajaratilgani sababli, uning faoliyatini tekshirishga kelgan nazorat qiluvchi idoralar vakillarining ayrimlari "Davlat xaridari to'g'risida"gi qonun talablarini buzilmoqda, degan xulosaga kelayapti.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridari to'g'risida"gi qonunida davlat xaridlarini davlat buyurtmachilari amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunning 4-moddasida davlat buyurtmachisiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Davlat buyurtmachisi – davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs". Vaholanki, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi yuridik shaxs emas, uning INN raqami ham mavjud emas, hatto faoliyat uchun qo'shimcha shat birliklari ham berilmagan. Jamg'arma mablag'lari "Mahalla" xayriya jamoat fondi hududiy bo'limlarining ikkilamchi hisob raqamida saqlanadi, hisob va hisobotlarni qo'shimcha ish sifatida fond buxgalteriyasi yuritadi. Shunday ekan, yuridik shaxs bo'limgan bu jamg'arma qanday qilib davlat buyurtmachisi bo'la olishi mumkin?

Bundan tashqari, "Mahalla" xayriya jamoat fondi nodavlat tashkilot bo'lgani bois, unga "Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarning xaratjatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablar qo'yilmagan.

Bugungi kunda jamg'arma mablag'lariidan foydalanish tartibi hukumatning 2020-yil 22-apreldagi farmoyishi, 2021-yil 28-apreldagi va 2022-yil 31-martdagli qarorlari bilan belgilangan. Aynan tartiblar bir necha aktida belgilangan, talab va normalar turlicha talqin qilinishi, yondashuvilar ham gohida talab-larga mos bo'lmasligi ijrochilarga, ya'ni "Mahalla" xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi va tuman (shahar) bo'linmalariga ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Tajribaga tayanib, shuni aytish mumkinki, mazkur jamg'arma Nizomin takomillashtirish zarur. Bunda yordam oluvchilar toifalarini qayta ko'rib chiqib, yordam turlarini aniq belgilash, ayniqsa, pul shaklidagi moddiy yordam miqdorini aniq belgilash, murojaatlarni elektron tarza qabul qilish, (yordam oluvchining daromad miqdori yuqori chegarasini belgilash), bir shaxs bir yilda necha marta yoki qancha miqdorgacha pul shaklidagi moddiy yordam olishi huquqini belgilash, birlamchi hujat-larga bo'lgan talabni anqliqlashtirish, jamg'armadagi mablag'ni tasarruf etish tartibini takomillashtirish, taklif beruvchi va qaror qabul qiluvchi shaxslar mas'ulligini yanada oshirish mexanizmlari va boshqa masalalari o'z aksini topmog'i maqsadga muvofiq.

**Faxriddin SOLIEV,**  
"Mahalla" xayriya jamoat fondi Navoiy viloyat bo'limi boshqaruvi raisi

**MEHNAT** munosabatlari bir qarashda unchalik murakkab bo'limgan munosabatlardek tuyulishi mumkin, biroq uning o'ziga xos nozik tomonlari bor. Ya'ni, mehnat huquqligiga amal qilmaslik nafaqat bir shaxsning huquq va manfaatlarni buzadi, balki u shaxsning barcha oila a'zolari manfaatlariiga ta'sir ko'satadi. Masalan, ishdan noqonuniy bo'shatilgan shaxs nafaqat ishsiz qoladi, balki moddiy jihatdan ham ahvoli og'irlashadi, o'z or'niida qaramog'iда bo'lgan shaxslar ta'minotsiz qoladi, bu holat esa oiladagi sog'lom muhitning buzilishiga sabab bo'ladi.

## Mehnat huquqlari buzilgan shaxs adolatga shubha bilan qaraydi



Shuningdek, mehnat huquqlari buzilgan, noqonuniy ishdan bo'shatilgan va tazyiqqa uchragan xodimlarda mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga, qonun ustuvorligiga va davlat organlari hamda mansabdar shaxslarning adolatlilikiga nisbatan shubha uyg'onadi.

1996-yilda qabul qilingan Mehnat kodeksining 92-moddasiga asosan boshqa doimiy ishga o'tkazishga (xodimning mehnat vazifalarini o'zgartirishga) – unga boshqa mutaxassislik, malaka, lavozimga oid ishni topshirishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Mazkur norma yangi Mehnat kodeksining 140-moddasida bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra, xodimni boshqa ishga doimiy o'tkazishga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yildi.

Yangi Mehnat kodeksining 149-moddasiga ko'ra, xodimni doimiy boshqa ishga o'tkazish to'g'risida, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini o'zgartirish haqida,

mehnat shartnomasida shart qilib ko'satilgan ish joyini o'zgartirish va ish beruvchining boshqa joyga ko'chishi munosabati bilan joyni o'zgartirish haqida buyruqlar chiqarish uchun mehnat shartnomasiga kiritilgan o'zgartishlar asos bo'ldi. Mehnat shartnomasiga doir o'zgartishlar xodim va ish beruvchi tomonidan yozma shaklda tuziladigan hamda mehnat shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha kelishuvni imzolash orqali rasmiylashtiriladi.

Biroq, amaliyotda xodimni boshqa doimiy ishga o'tkazishda xodimning rozilik xati olinsa-da, mehnat shartnomasiga tegishli o'zgartirish kiritilaganlik holatlarni uchratish mumkin.

Amaldagi Mehnat kodeksining 155-moddasiga asosan mehnat shartnomasini bekor qilish deganda ushbu kodeksda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha xodim va ish beruvchi o'tsidiagi yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni tugatish tushuniladi.

Mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari quyidagi-lardan iborat:

- taraflarning kelishivi (157-moddasasi);
- mehnat shartnomasi muddatining tugashi (158-modda);
- mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish (160-modda);
- mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilish (161-modda);
- tashkilot mulkdorining almashganligi, uning qayta tashkil etilganligi, tashkilotning idoraviy taalluqiligi (bo'ysunuvi) o'zgarganligi munosabati bilan xodimning ishni davom ettirishni rad etishi (156-moddaning beshinchchi qismi);
- xodimning yangi mehnat shartlarida ishslashni davom ettirishni rad etishi (137-moddaning to'rtinchchi qismi);
- xodimning ish beruvchi bilan birga boshqa joyga ishslash uchun ko'chishni rad etishi (146-moddaning beshinchchi qismi);
- xodimning tibbiy xulosaga muvofiq sog'lig'ining holatiga ko'ra qarshi ko'satma bo'limgan boshqa ishga o'tkazishni rad etishi yoxud ish beruvchida tegishli ish bo'limgan taqdirda (143-moddaning ikkinchi qismi);
- taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'limgan holatlar (168-modda);
- yangi muddatga saylanmaganlik yoki tanlovdan o'tmaganiq yoxud saylovda, tanlovda ishtiroy etishni rad etishi (169-modda);
- ushbu kodeks yoxud boshqa qonunlar alohida toifadagi xodimlarning bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida mehnatga oid munosabatlarni tugatishning qo'shimcha asoslari to'g'risidagi shartni nazarda tutish imkoniyatini mustahkamlaydigan hollarda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslar.

Mazkur moddaning birinchi bandiga asosan, ya'ni taraflarning kelishuviga ko'ra, mehnat shartnomasini bekor qilishda, ish beruvchi va xodim o'tasida qo'shimcha yozma kelishuv bor yoki yo'qligi, unda mehnat shartnomasini bekor qilish sanasi ko'satilgan yoki ko'satilmaganligi va tomonlarning rekvizitlari mavjud yoki mavjud emasligiga alohida e'tibor qaratish lozim.

**Mavluda BOBORAIMOVA,**  
Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

### OGOHLIK DAVR TALABI

**Yarim asrdan ziyod vaqt o'tdiki, giyohvandlikning oldini olish va unga qarshi kurashish muammosi nafaqat respublikamiz yoki Markaziyo Osiyo, balki butun dunyo jamoatchiligin jiddiy tashvishga solmoqda. Negaki, bu illat hudud, millat, din, toifa va jins tanlamaydi, chegara bilmaydi.**

## MILLAT VA CHEGARA BILMAS ILLAT

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilar iste'moli narkomaniya sindromiga borib yetadi. Dastlab nerv sistemasiga, (shaxsning) ruhiy holatiga qarab eyforiya (xushnudlik) keilib chiqadi. So'ng bu iste'molni hamma narsadan afzal ko'rish shakllanib, muntazam ravishdagi qabulga, uni yengib bo'lmas darajada tobelikka aylanadi. Oqibatda fikrash sur'ati tezlashadi, fikrlar bir-birining o'nini bosib ketadi. So'zlari ko'p, gaplari taribisiz bo'lib, aniq fikrni ifodalay olmaydi. Keyinchalik giyohvand atrofdagilar o'zi bilan birga xursandchilik qilmay-

ganidan ajablanadi, jahli chiqadi, qahrga to'ladи. Shu vaqtida unda turli fantaziya va ilyuziyalar paydo bo'ladi.

Shundan keyin giyohvandlikning ikkinchi – tushkunlikka tushish bosqichi boshlanadi. Ayni jarayonda ranglar go'yo xira tortadi, ilyuziya va fantaziyalari yo'qoladi, fikrash sur'ati keskin tormozlanadi hamda qo'rquvlar paydo bo'ladi.

Giyohvandlikning kasallik sifatida shakllanishi, rivojlanishi va vujudga kelishi ruhiy qaramlik, jismoniy qaramlik (abstinentiv sindrom) hamda o'zgargan tolerantlik (reaktivlik)ning paydo bo'lishi, kuchayishi va mustah-

kamlanishi bilan tavsiflanadi.

Ruhiy bog'lanib qolish – bu narkotiklarning qayta-qayta, qandyadir lazatlari olib yoki ruhiy bezovtalikni yo'q qilish uchun uzuksiz yoxud davriy ravishda qabul qilishga xastalarcha intiliш (moyillik). Bunday bog'liqlik narkotiklarning tizimli ravishda qabul qilishning deyarli barcha vaziyatlarda, buning ustiga, ko'pincha ularni bir martagine qabul qilish natijasida ham yuzaga keladi.

Jismoniy bog'lanib qolish – narkotiklarning uzluksiz ravishda qabul qilish natijasida odam organizmi butun hayot faoliyatining alohida yomon tomonqa o'zgarishi. U intensiv jismoniy va ruhiy bezovtaliklar, og'riqlar bilan davom etib, ular narkotik qabul qilinishi bilan tezda yo'qoladi.

Tolerantlik – narkotikning ta'siriga nisbatan organizmining chidamliligi (sezgirligi)dir. Tizimli ravishda qabul qilganda adaptatsiya, ya'ni organizmning narkotikka o'rganib qolishi ro'y berib, bunda xuddi shu dozani iste'mol qilganda organizm endi kamroq reaksiya berishi namoyon bo'ladi. Shuning uchun oldingi psixofizik

samaraga erishish uchun narkoman endi narkotikning ko'proq dozasi ni qabul qilishi lozim bo'ladi. Keyin bu doza ham kamlik qilib qoladi va uning oshirib borilishi talab qilinadi. Bunda shaxs keyfiyatni yaxshilangani, tekitlashgani, kuchiga kuch qo'shilganini his qiladi. Mazkur holat unga o'z cheksiz imkoniyatlarga egadek bo'lib tulaydi. Ba'zan eyforiya holatida shaxs yengillik, o'ziga xos ruhiy muvozanatni his qiladi. Qator hollarda eyforiya subjektiv yoqimli somatik-vegetativ hislar bilan uyg'unlikda yuz beradi (tanga issiqlik yoyiladi va hokazo).

Eyforiya holatining intensivlik darrasasi giyohvandlikning shakllanish tezligini belgilaydi. Eyforianing xususiyati hamda kuchi giyohvandlik vositasining turi, sifati, dozasi, iste'mol usuli, "staj", iste'molchi shaxsining o'ziga xostiklari va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Giyohvandlik vositalari muntazam iste'mol qilinganida eyforiya holati kishi uchun asosiy ehtiyojga aylanadi.

**Abbos PAYZIYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi

## 8 BONG

Kundalik xabarlarini o'qib, seskanadigan darajaga yetdik. Deyarli har kuni qora xabarlarga yuzma-yuz kelamiz. Avval birovning bolasiga chang soldik, xo'rладик, таҳқирладик. Insoniy qiyofamizni yo'qotib, ko'z ko'rib, qulq eshtitsa ishonmaydigan xunrezliklarni qilishdan tap tortmadik. Bitta SMS xabar uchun o'z yaqinimizni o'dirishdan tap tortmay qo'yidik. Endi esa o'z bolamizni bo'g'ib o'diradigan, boshiga ne-ne ko'rguliklarni soladigan, norasida jigarbandimizni azoblashdan huzur qiladigan darajadagi tosh yurakli kimsaga aylandik. Millatimiz sha'nini oyoqosti qilayotganlar yonimizda biz bilan bir mahallada, bir ko'chada yashayotganini nahotki sezmayapmiz, nega buncha beparvomiz, loqaydmiz, ey, odamlar?

**BIRINCHISI EMAS...**

Bu kabi dahshatlari voqealarning keti uzilmayapti. Diydasi qattiq odamzod deyarli har kuni qo'lini qonga botirish uchun yangi episodlarni o'ylab topmoqda. Ota o'z bolasini oyoq qo'lli singuncha kaltaklasa, bo'g'ib o'ldirsa, ona o'z bolasini daryoga otsa... Bu qanday ko'rgulik? Bu qanday xiyonat, bu qanday razolat?

Samarqand viloyatidagi mudhish voqealari ham bugun barchaning dili ni kuydirayapti. Ammo afsuski, bu bong, bu g'azablar o'tkinchi, bu fojialar yana tez unutiladi, yana javobsiz, yana jazosiz qoladi. O'z farzandini o'z qo'llari bilan bo'g'ib o'dirish uchun odamzot quturgan hayvondan ham battar bo'lishi kerak! Bu jinoyatchi endi yuz marta jazolangan bilan begunoh bolalarni hayotga qaytarib bo'lmaydi. Ammo jazoning qat'yligi va qat-tiqligi kelgusida bunday fojialarning takrorlanmasligiga yordam berishi mumkin. Bunday fojialar aslida jamiyatning, millatning bitmas jarohatlari, o'chmaydigan dog'lari. Nahotki, jamiyat bolani o'z otasidan himoya qilishi zarur bo'lgan darajadagi tanazzulga

**QAHRG'A AYLANGAN MEHR***yoxud biz kimlarning avlodid edik?*

**■ Bolasini boshidan ham balandga ko'targan, bolam men dan baxtli bo'lsin degan, eng yaxshi narsalarni bolasiga atagan, dilbandini ko'z qorachig'idek asragan elning avlodimiz. Butun dunyo o'zbekning bolajonligiga, mehribonligiga tan bergen, qoyil qolgan. Nahotki, bularning barchasi o'tmishda qolgan bo'lsa. Nahotki, mehr o'rnnini vahshiylik, yozuvlik va qahr egallayotgan bo'lsa?! Bunga ishonish qiyin, buni tan olish juda og'ir, albatta.**

yuz tutgan bo'lsa? Axir yer yuzidagi eng yirtqich hayvonlar ham o'z bolasiga ozor berishlariga, zarar yetkazishlariga yo'l qo'ymaydi-ku.

**YO'LBARSH  
CHANGALIDAGI ONA  
KIYIK**

Keyingi paytlarda hayvonlar ham insondon yaxshiroq degan xulosaga ko'p keladigan bo'ldik. Mana bu su-

rat yurakni larzaga soladi. Yo'llbarslar changalidagi ona jayron. Bolalarining hayotini saqlab qolish uchun o'zini yo'llbarslar changaliga topshirgan ona kiyikning matonati va bardoshiga qoyil qoldiradigan bu suratni ko'rib, oramizda insoniylik qiyofasini yo'qotgan, o'z bolasiga yaxshilikni ravo ko'rmayotgan, birovning bolasini xo'rlayotgan, yetimiň tahoqilayotgan hayvondan ham battar kimsalar borligidan hazar

qilasiz. Bolalari uzoq-uzoqlarga qo'chib ketgunicha yirtqichlarni chalg'itib, dahshat changalida turib bo'sha ham ularning yugurib ketayotganini kuata-tayotgan, yirtqichlar uni burda-burda qilishiga qo'yib bergan ona jayron... Bu surat, bu holat bolasi uchun qurban bo'lish nima ekanligidan dars berib turibdi.

**BOLANGIZNI KIM  
ASRAYDI?**

Bolalarga bir buyumdek qarab, ularning haq-huquqlarini poymol qiliш qonunlarimizga ham, qadriyatlarimizga ham ziddir. Bolasini keksa ota-onasiga, amma-xolasiga, hatto begonaga tashlab chet elga ketayotgan ota-onalar ko'payib bormoqda. To'g'ri, qonunlarimizda bolalarning tinchligi va xavfsizligi borasida yangi normalar o'z aksini topdi. Masalan, xorijga ketayotgan ota-onalar o'z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlashi shart!

Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan, uchun ham ma'muriy javobgarlik belgilandi. Qolaversa, ota-onayashash joyidan chet davlatga vaqtinchalisa chiqib ketayotganida, o'z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlashi shart bo'lgan muddat 6 oydan 3 oyga qisqartirildi. Ya'ni, ota-onay 3 oydan ko'p vaqt chet elga ketsa bolasiga vasiy yoki homiy tayinlashi kerak, aks holda ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Normalar o'z yo'lliga. Ammo bu illating ildizi chuqrur. Onalar farzandidan voz kechmasa, hech kim ularning bir tola sochini ham to'kishga jur'at eta olmasligi aniq! Ona mehri yo'qolgan joyda har qanday halokat, har qancha falokat ro'y berishi aniq! Bolangizni o'zingiz asramasangiz, kim asraydi? Shu savolni o'zingizga berib ko'ring!

**Marusa HOSIROVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri

**E'LONLAR**

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi 807-soni qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish taribili to'g'risidagi nizomga asosan quyidagi shaxslarning

Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi:

T/r	F.I.Sh.	Adliya boshqarmasining buyrug'i sanasi va raqami
1	Maksudov Alisher Maksudovich	04.05.2023-yildagi 144-son
2	Djurayeva Gulchexra Abuvaliyevna	04.05.2023-yildagi 144-son
3	Lim Marina Dmitriyevna	04.05.2023-yildagi 144-son

"Advokatura to'g'risida"gi qonun hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentabrdagi 807-soni qarori bilan tasdiqlangan Advokatlik guvohnomasini berish taribili to'g'risidagi nizomga asosan quyidagi shaxslarning

Advokatlik litsenziysi va maqomi to'xtatildi:

T/r	F.I.Sh.	Litsenziya yoki guvohnoma sanasi va raqami	Buyruq sana-si va raqami	To'xtatib turish muddati
1	Turdibakiyev Muzaffar Zairovich	21.01.2019-y., TN 000868	10.05.2023-y., 149-um-son	2023-yil 17-apreldan 1 oya
2	Beknazarov Abduraxim Mamaraimovich	30.07.2021-y., TN 001970	10.05.2023-y., 149-um-son	2023-yil 17-apreldan 15 kunga

Farg'ona tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 6-mart kungi hal qiluv qaroriga asosan "Chorsu femida" advokatlar hay'ati advokati Xasanov Avazbek O'limasovichga Farg'ona viloyat adliya boshqarmasini tomonidan berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining (FE 000314) amal qilishi hamda advokatlik maqomi 2023-yilning 6-avgust kungi qadar to'xtatildi.

\*\*\*

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 15-maydagi 104-um-son buyrug'i bilan adliya boshqarmasini tomonidan 2018-yil 17-dekabrda berilgan AN №000004 sonrasi litsenziya egasi advokat Isakova Dilafuz Raximjanovning advokatlik maqomi tiklandi.

**INSON  
va qonun**

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milly huquq arborot markazi nashri

Info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-rasqan bilan  
ro'yxatga olingan  
ISSN 2010-7877

Bosh  
muhabbir  
Asliddin  
ALIMARDON

TAHIRR HAY'ATI  
Alisher Karimov  
Furqat Tojiev  
Hayotjon Klichev  
Sevara O'rbinboyeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqrib  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.  
Navbuchi  
Yorbek Iskandarov  
Sahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137  
"Inson va qonun" gazetasini hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-da chop etildi.  
Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,  
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy  
Tiraji – 3850  
Buyurtma – 1538

Topshirish vaqt – 19:00  
Buyurtma – 1538  
Topshirish vaqt – 19:00  
Topshirildi – 20:00

MANZILIMIZ:  
100115, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-yu.

Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda  
1 2 3 4 5